

## XIZMAT KO'RSATISH SOHASIGA INVESTITSİYALARNI MOLİYALASHTIRISH MUAMMOLARI

### PROBLEMS OF FINANCING INVESTMENTS IN THE SERVICE SECTOR

**Qarajanova Gulnoza Tolliyevna**

*SamISI, "Investitsiya va innovatsiyalar" kafedrası assistenti*

**Yarlaqabov Faxriddin Bahodir o'g'li**

*SamISI, Bank-moliya xizmatlari fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu tezisdavlat iqtisodiyoti rivojlanishi uchun zarur bo'lgan investitsiyalarni xizmat ko'rsatish sohasiga jalb qilishda yuzaga keladigan muammolar haqida batafsil tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *investitsiyalar, iqtisodiy jozibadorlik, chet-ellik va mahalliy investorlarni jalb qilish, xizmat ko'rsatish sohasi, moliyaviy kelajak, modernizatsiya qilish.*

**Abstract:** *this thesis analyzes in detail the problems that arise when attracting investments necessary for the development of the state economy to the service sector.*

**Key words:** *investment, economic attractiveness, attraction of foreign and domestic investors, service sector, financial future, modernization.*

Hozirgi paytda jahon iqtisodiyotining globallashuvi davrida zamonaviy xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi ixtisoslashuv darajasi bilan tavsiflanadi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda texnologik qayta jihozlashga qaratilgan islohotlar, iqtisodiyotning zamonaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish natijasida xizmat ko'rsatish sohasida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Buning natijasida xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi barqaror o'sib boryapti. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasida "... birinchi navbatda, xizmat ko'rsatishning sifati jihatidan yangi darajasiga o'tish orqali xizmat ko'rsatish va servis sohasini modernizatsiya qilish" ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish sohasidan unumli foydalanish asosida mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini o'rganish bu vazifani samarali hal etishdan iborat bo'ladi. Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish sur'atlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar islohotlar strategiyasi muvaffaqiyati, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va davlatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarida erishilgan yutuqlar ifodasi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolli va joriy chora-tadbirlarini belgilashda tarmoq va tarmoqlarning rivojlanish darajasi va ularning kadrlarga bo'lgan talabini har tomonlama hisobga olishni, ushbu jarayonlarni ta'siri nuqtai nazaridan iqtisodiyotni rivojlantirish dasturlarini shakllantirishni taqozo etib bormoqda. Iqtisodiyot rivojining muhim omili bo'lgan xizmatlardan samarali foydalanish kelgusidagi strategik rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Respublikamiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash

sharoitida shaxsiy xizmatlardan samarali foydalanishni aniqlash vositalaridan biri mehnat samaradorligini oshirish manbalari va zaxiralarini aniqlash hisoblanadi. Shuning uchun mehnat unumdorligi ko'rsatkichining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini yetarlicha o'rganish uchun o'zaro bog'liq bo'lgan mehnat ko'rsatkichlarini har tomonlama tahlil qilish zarur. Bizningcha, barcha moddiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish asosida yuqori mehnat natijalariga erishish mehnat samaradorligini oshirishning asosiy mezonini hisoblanadi.

O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy sharti sifatida investitsiya faoliyatini jadallashtirish, barqaror va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, mahalliy va xorijiy investorlarga imtiyozlar va kafolatlar berish, ushbu jarayonlarning samaradorligini ta'minlash uchun davlat tomonidan tartibga solish, shu jumladan yillik milliy va hududiy investitsion dasturlarni amalga oshirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning erkin kirib borishini ta'minlash va xalqaro talablar asosida infratuzilmani shakllantirish maqsadida institutsional o'zgartirishlar, ya'ni huquqiy-me'yoriy hujjatlar, standartlar va talablar ishlab chiqildi, boshqaruv tuzilmalari takomillashtirildi.

So'nggi yillarda hududlarda xizmat ko'rsatish sohasi o'sayotganini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Andijon, Toshkent. O'zbekistonda iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, aholi daromadi va turmush sifatini oshirishning muhim omili va yo'nalishlaridan biri hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishdan iborat. Mamlakat iqtisodiyoti uchun erkin iqtisodiy zonalarining mazmun-mohiyati hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mahalliy va xorijiy kapitalni, istiqbolli texnologiyalar va boshqaruv amaliyotini jalb etish maqsadida tashkil etilgan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartibga ega bo'lgan alohida ajratilgan hududlardir. Erkin iqtisodiy hududlar jahon iqtisodiyotining muhim bo'g'ini bo'lib, ko'plab mamlakatlarga xorijiy investitsiyalar jalb etilib, o'zining ijobiy samarasini ko'rsatmoqda. EIH turli mamlakatlarda turli shakllarda mavjud bo'lib, ularni asosan bitta xususiyat, ya'ni ushbu hududlarda joriy etilgan imtiyozli shartlar birlashtiradi. Bunday qulay muhit xorijiy sarmoyani jalb etishning samarali usullaridan biridir. EIHlar bugungi integratsiya va globalashuv jarayonlarida asosiy omil hisoblanadi. EIHlar xorijiy investorlarni jalb qilish orqali kapitalning xalqaro almashinuviga olib keladi, integratsiya esa transmilliy kompaniyalar oqimi orqali jarayonni yuqori darajaga olib chiqadi. O'zbekiston iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi sharoitida mamlakatimizda eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlantirish siyosatini amalga oshirish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilishda erkin iqtisodiy zonalaridan foydalanish, shuningdek, import o'rnini bosuvchi yuqori - texnologik ishlab chiqarish. Rivojlangan davlatlar, ayniqsa, jahon iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan Xitoy, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlarning tashqi savdo siyosati tajribasidan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotimiz rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunga ko'ra, milliy iqtisodiyotni shakllantirishda bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos xususiyatlarini

hisobga olgan holda tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish orqali mamlakatning tashqi savdo va eksport salohiyatini oshirish, xususan, erkin iqtisodiy munosabatlarni o'rnatish masalasini beradi. mamlakatdagi zonalar. va ularni tartibga solish usullarini yanada takomillashtirish zarurati. Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish va samarali olib borishda xorijiy davlatlar tajribasi va usullaridan samarali foydalanish bugungi kunning eng muhim masalalaridan biridir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri xizmatlar sohasiga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ular yordamida yangi ish joylarini yaratish, mehnat resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni tashkil etishdir. Jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar O'zbekiston iqtisodiyotining boshqa sohalari singari xizmatlar sohasini ham ustuvor darajada rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu sababli mamlakatimizda islohatlarni chuqurlashtirish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini ham ustuvor darajada rivojlantrish ustuvor va muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasini mamlakatimiz ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarbligicha qolmoqda. Shu bilan birga, mazkur tarmoqni rivojlantirishdagi jiddiy kamchiliklarni ta'kidlash joiz, xususan, bandlikni oshirish va aholi daromadlarini ko'paytirish hamda mahalliy byudjetlarni to'ldirishning istiqbolli manbai sifatida xizmat ko'rsatish imkoniyatlaridan kam foydalanilmoqda. Xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish, uning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarida band bo'lganlar sonini ko'paytirish va shu asosda aholi daromadlarini oshirish hamda ichki iste'mol bozorini zamonaviy, sifatli turli-tuman xizmat turlari bilan to'ldirish bilan bog'liq muammolarni mavjudligi va mazkur holatlar tanlangan mavzuni hozirgi sharoitda dolzarbligi va muhimligini ko'rsatib bermoqda. Umuman olganda xizmatning mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- xizmat ko'rsatish shunday sohaki, u bilan hamma to'qnash keladi va shuning uchun ham hamma o'zini bu sohada mutaxassis deb hisoblaydi;
- xizmat ko'rsatish haddan tashqari individul yondashuvni talab etadi;
- bajarilgan ishning yuqori sifatligi xizmat ko'rsatish sifati yuqoriligiga olib keladi, degani emas;
- aksariyat xizmatlar ham moddiy, ham nomoddiy tavsifga ega bo'lib, ular birgalikda —xizmatlar paket|| deb atalishi mumkin;
- xizmatlar mijoz bilan yaqin aloqada ko'rsatiladi va u tomonidan xizmat ko'rsatish jarayonida iste'mol qilinadi;
- xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonani samarali boshqarish uchun marketing va tegishli operatciyalarni chuqur bilish, xodimlar bilan ishlash qobiliyatiga ega bo'lish kerak;
- xizmat ko'rsatish jarayonini mijozning servis tashkiloti bilan aloqalar ketmaketligi ko'rinishida tasavvur etish mumkin.

Yuqoridagi mulohazalarni e'tirof etgan holda ta'kidlash kerakki, xizmat ko'rsatish sohasi ishlab chiqarishdan ko'p jihatlari bilan farqlanadi. Bu farqlanishlar xizmat ko'rsatish yuqori darajadagi individuallikka bog'liqligi, xizmat ko'rsatish tezligi, mijoz bilan bevosita, xizmat ko'rsatish paytida turlituman aloqalarda bo'lish zaruriyati bilan izohlanadi. Ishlab chiqarish sohasida qo'llash mumkin bo'lgan talab o'zgarishining tuzatish jadvallari va himoyalash mexanizmlari xizmat ko'rsatish sohasida aksariyat hollarda ish bermasligi mumkin. Bundan tashqari xizmat ko'rsatish sohasi mijozlarning ehtiyojlarini qondirish uchun nisbatan yuqori mehnat unumdorligini taqozo qiladi. Bu esa, o'z navbatida, xizmat ko'rsatish sohasiga jalb etilgan xizmatchilardan moslashuvchanlikni talab etadi. So'nggi bir necha yil ichida O'zbekiston jadal iqtisodiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda biznes va investitsiyalar uchun turli xil to'siqlarini bartaraf etishda ochiqlik, yangilanish va qat'iyatlilik ramzlaridan biri sifatida tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda.

Xulosa va takliflar. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunini samarali ijro etilishi uchun investorlar bilan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, hokimliklar, xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va tijorat banklari rahbarlari o'rinbosarlaridan iborat bo'lgan davlat hokimiyat organlari hamkorligining 4 bosqichli mexanizmi muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilgan. Ushbu mexanizm investorlarning barcha so'rovlariga tezkor javob qaytarish va qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishining samaradorligini kerakli tarzda nazorat qilish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining ko'magi bilan tuzilgan, Respublikada faoliyat yuritayotgan investorlar bilan bevosita muloqotni ta'minlaydigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining rolini ta'kidlash muhim ahamiyatga ega. Xususiyl investitsiyalarni faollashtirish uchun tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish talab etiladi. Biznes bilan doimiy muloqot, muayyan sektorlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni aniqlash va yengib o'tish bo'yicha astoydil ish olib borish kerak va bu mamlakatda biznesni rivojlantirishga katta hissa qo'shishi mumkin. Bu esa mamlakat iqtisodiyotini o'sishiga birmuncha turtki bo'lishi aniq.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Khankeldieva G.Sh. Theoretical and Economic Prerequisites for the Development of Regional Industrial Clusters in the Economy of the Republic of Uzbekistan // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). 2020. pp. 234-240. <https://doi.org/10.36713/epra.4855>.

2. "Strategy of actions on five priority directions of development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021" of the President of the Republic of Uzbekistan

3. Ханкелдиева Г. Ш. Перспективы развития электроэнергетической отрасли Республики Узбекистан в условиях модернизации экономических отношений // Бюллетень науки и практики. Электрон. журн. 2017. №12 (25). С. 293-299. Режим доступа: <http://www.bulletennauki.com/honkeldiyeva-g>